



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinov, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	82
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich, To'xtayev Kamol Po'latovich	
MARKETING VA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TAYYOR KIIYIMLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	87
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	93
Odilova Malika Abdushukur qizi	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	98
Toshtemirov Xojjakbar Qahramon o'g'li	
ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ	103
Артикова Шохида Ильясовна	
MINTAQALARDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	107
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
THEORETICAL ASPECTS OF SERVICES IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S ECONOMIC TRANSFORMATION	114
Umidjon Normurodov, Qodirov Yusufbek Suyunbek ugli	
РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИННОВАЦИЙ	120
Расулов Нозимжон Набиджонович	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING JORIY QILINISHI VA UNI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....	125
Saburov Jumanazar Saliyevich	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA ICHKI BOZORNI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI	129
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Убайдуллаев Худоёр Бахтиёр угли	



MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARI SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	141
Xayitov Rustam Burxonovich	
BARQAROR MOLIYALASHTIRISH KONSEPSIYASIGA MUVOFIQ "YASHIL" INVESTITSIYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	146
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH.....	151
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI	159
Ibodova Dilsora Ibo dovna	
INVESTITION PORTFELLARNI SHAKLLANTIRISH, BAHOLASH VA BOSHQARISH.....	165
Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Abdullaeva Shohista	
KICHIK XIZMATLAR FAOLIYATINI RASMIYLASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH.....	170
Xalimbetov Farxad Bagibekovich	
MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	173
Akbarov Jasur Ikromjon o'g'li	
СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ДИНАМИКИ И СЕЗОННОСТИ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
Салиходжаева Умида Абдуакбар кизи	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI TALABNI PROGNOZLASHNING CHAKANA MARKETING INNOVATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI ROLI	186
Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi	
TEMIR YO'L YO'LOVCHI TASHISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MODELLARI	200
Eshboyev Ulug'bek Farxodovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOT VA AUDIT METOLOGIIYASINI TAKOMILASHTIRISH	205
Zufarova Zilola Raxim qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILLARI	216
Rahmonqulov Temirbek Eshmatovich	
MULKIY SOLIQLARNING MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH.....	222
Aliyarov Olim Abdug'aparovich	
AVTOMOBIL SANOATIDA MAHSULOT BILAN BOG'LIQ XIZMATLAR TASNIFI	231
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
UY-JOY FONDINI SAMARALI TASHKIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJIY TAJIRIBALARI.....	236
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	



UY-JOY FONDINI SAMARALI TASHKIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI

Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

mustaqil izlanuvchi

Email: otajonovtohirjon68@gmail.com

ORCID: 0009-0004-5435-5998

Annotatsiya. Maqolada uy-joy fondini boshqarish va takomillashtirishning Germaniya, Singapur, Janubiy Koreya, Shvetsiya va Avstriya kabi rivojlangan davlatlardagi ilg'or tajribalari tahlil qilinadi. Ushbu mamlakatlarda qo'llanilayotgan kooperativ uy-joy modeli, davlat-xususiy sheriklik, ijtimoiy uy-joy dasturlari, energotejamkor qurilish standartlari va raqamli boshqaruv tizimlarining O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari baholanadi. Ushbu natijada xorijiy tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: uy-joy fondi, kooperativ uy-joy, davlat-xususiy sheriklik, ijtimoiy uy-joy, energotejamkor qurilish, raqamli boshqaruv.

Abstract. The article analyzes the best practices of housing stock management and improvement in developed countries such as Germany, Singapore, South Korea, Sweden and Austria. The possibilities of applying the corporate housing model, public-private partnerships, social housing programs, energy-efficient building standards and digital management systems used in these countries in the conditions of Uzbekistan are assessed. As a result, practical recommendations have been developed for adapting foreign experiences to local conditions.

Key words: housing stock, cooperative housing, public-private partnership, social housing, energy-efficient construction, digital management.

Аннотация. В статье анализируются лучшие практики управления и совершенствования жилищного фонда в развитых странах, таких как Германия, Сингапур, Южная Корея, Швеция и Австрия. Оцениваются возможности применения модели корпоративного жилищного строительства, государственно-частного партнерства, программ социального жилья, стандартов энергоэффективного строительства и цифровых систем управления, используемых в этих странах, в условиях Узбекистана. В результате разработаны практические рекомендации по адаптации зарубежного опыта к местным условиям.

Ключевые слова: жилищный фонд, кооперативное жилье, государственно-частное партнерство, социальное жилье, энергоэффективное строительство, цифровое управление.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda uy-joy qurilishi jadal sur'atlarda olib borilmoqda. 2021–2025 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da aholi uchun arzon va sifatli uy-joy bilan ta'minlash ustuvor vazifalardan biri etib belgilandi [1].

Iqtisodiy tadqiqotlarni amalga oshirishda eng muhim tadqiqot usullaridan biri iqtisodiy-matematik modellashtirish hisoblanadi. Modellar tizim yoki biror iqtisodiy jarayonning o'ziga xos jihatlarini ko'rsatib berish, tushuntirish va bashorat qilish uchun qo'llaniladigan grafiklar, tenglamalar va tengsizliklar sifatida qaraladi. Model so'zining lug'aviy ma'nosi biror narsaning qanday ishlashini tushuntirish yoki nima bo'lishi mumkinligini aniqlash va o'lchash uchun foydalaniladigan tizimning soddalashtirilgan tavsifidir [2].

Ushbu ta'rif modelning umumiy ma'nosini ochib beradi, ya'ni modeldan tizimning qanday ishlashini tushuntirish va uning tarkibiy qismlari orasidagi munosabatlarni miqdoriy baholashda foydalanish mumkin. Biroq bir qator iqtisodchilar turli yondashuvlar asosida model tushunchasining o'ziga xos ta'riflarini shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratishgan. Xususan, Samuelson va Nordhaus modelni murakkab tizimning muhim xususiyatlarini, asosiy tarkibiy qismlari orasidagi bog'lanish va munosabatlarni o'lchashda foydalaniladigan grafiklar, matematik tenglamalar va kompyuter dasturlari sifatida qarashadi. Yana bir guruh olimlar model yoki nazariyani insonlar xulq-atvori haqida xulosa chiqarish uchun qo'llaniladigan usullar sifatida talqin qilishadi [3].



Rivojlangan davlatlarning ko'p yillik tajribasi shuni ko'rsatadiki, uy-joy fondini samarali boshqarish uchun faqat qurilish emas, balki institutsional, huquqiy, moliyaviy va texnologik yechimlar majmuasi zarur. Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlarning muvaffaqiyatli modellari tahlil qilinib, ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Uy-joy fondini samarali tashkil qilish va uni doimiy ravishda takomillashtirib borish masalasi zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda hududiy rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik hamda aholi farovonligini ta'minlashning muhim sharti sifatida talqin etiladi. Bu yo'nalishda xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, uy-joy fondini boshqarish faqat qurilish hajmlarini oshirish bilan cheklanmay, balki sifat, energiya samaradorligi, ijtimoiy tenglik va institutsional mexanizmlar uyg'unligini talab etadi.

Jahon miqyosida uy-joy siyosati masalalari bo'yicha yetakchi ilmiy va amaliy yondashuvlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining UN-Habitat dasturi faoliyatida keng yoritilgan. UN-Habitat tomonidan 2010-yillardan boshlab ishlab chiqilgan global uy-joy strategiyalarida arzon uy-joy ta'minoti, barqaror shaharsozlik va ijtimoiy inklyuziya masalalari ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Mazkur tadqiqotlarda uy-joy fondining miqdoriy kengayishidan ko'ra, uning funksional sifati va aholining real ehtiyojlariga mosligi muhimroq ekanligi asoslab berilgan.

Uy-joy fondining iqtisodiy samaradorligini baholash masalalari John F. Kain va Edwin S. Mills tomonidan ishlab chiqilgan urban iqtisodiyot nazariyalarida chuqur yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida uy-joy joylashuvi, transport infratuzilmasi va ish o'rinlariga yaqinlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik shahar uy-joy fondining qiymati va foydalanish samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida ko'rsatiladi. Ushbu yondashuv keyinchalik Yevropa va AQSh shaharlarida uy-joy fondini rejalashtirishda amaliy qo'llanilgan.

Yevropa davlatlarida uy-joy fondini boshqarishning institutsional modeli Peter Hall va Patsy Healey tadqiqotlarida batafsil tahlil qilingan. Ularning ishlarida hududiy rejalashtirish, mahalliy boshqaruv organlari vakolatlarining kengaytirilishi va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining joriy etilishi uy-joy fondini barqaror rivojlantirishning asosiy sharti sifatida baholanadi. Xususan, Germaniya va Niderlandiya tajribasida ijtimoiy uy-joy fondini saqlash va modernizatsiya qilish uzoq muddatli strategik rejalarga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Uy-joy fondining ijtimoiy jihatlarini bo'yicha Anthony Giddens va Amartya Sen konseptual yondashuvlari muhim ahamiyat kasb etadi. Amartya Sen tomonidan ilgari surilgan "imkoniyatlar yondashuvi" uy-joyi faqat moddiy aktiv emas, balki inson salohiyatini rivojlantirish vositasi sifatida ko'rib chiqishni taklif etadi. Ushbu nuqtayi nazarga ko'ra, uy-joy fondining sifati ta'lim, sog'liqni saqlash va mehnat unumdorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Energiya samaradorligi va ekologik barqarorlik masalalari esa Nicholas Stern hamda OECD ekspertlari tadqiqotlarida alohida o'rin egallaydi. Stern tomonidan 2006-yilda e'lon qilingan iqlim iqtisodiyoti bo'yicha hisobotda uy-joy fondining energiya tejamkorligini oshirish issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishning eng samarali yo'llaridan biri sifatida baholangan. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida bino va inshootlarni modernizatsiya qilish dasturlari aynan ushbu ilmiy yondashuvlarga tayanadi.

Shuningdek, uy-joy fondini moliyalashtirish mexanizmlari bo'yicha Joseph Stiglitz va Hernando de Soto tadqiqotlari alohida e'tiborga loyiq. De Soto tomonidan mulk huquqlarini rasmiylashtirishning iqtisodiy ahamiyati asoslab berilgan bo'lib, bu jarayon uy-joy fondidan iqtisodiy aktiv sifatida samarali foydalanish imkonini yaratadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasida ushbu yondashuv ipoteka bozori va xususiy investitsiyalarni kengaytirishda muhim rol o'ynagan.

Umuman olganda, xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, uy-joy fondini samarali tashkil qilish kompleks yondashuvni talab etadi. Bunda shaharsozlik siyosati, ijtimoiy himoya, energiya samaradorligi va institutsional boshqaruv mexanizmlarining o'zaro uyg'unligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, mazkur tajribalar milliy sharoitga moslashtirilgan holda qo'llanishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada uy-joy fondini samarali tashkil qilish va takomillashtirishning xorijiy tajribalarini chuqur tahlil qilish maqsadida kompleks ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy tahlilni uyg'unlashtirishga asoslangan bo'lib, turli mamlakatlar tajribasini qiyosiy o'rganish orqali umumlashtirilgan xulosalar chiqarishga yo'naltirildi.

Maqolaning dastlabki bosqichida nazariy tahlil usuli qo'llanildi. Ushbu bosqichda uy-joy fondi, uning tuzilmasi, boshqaruv mexanizmlari hamda rivojlanish modellari bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va normativ-huquqiy hujjatlar tizimli ravishda o'rganildi. Bu usul uy-joy fondini boshqarish sohasidagi asosiy tushunchalar va nazariy qarashlarni aniqlash imkonini berdi.


Tadqiqotda statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usulidan ham foydalanildi. Xalqaro statistik bazalar, jumladan Jahon banki, OECD va UN-Habitat ma'lumotlari asosida uy-joy fondining rivojlanish ko'rsatkichlari umimlashtirildi. Statistik tahlil uy-joy fondining o'sish sur'atlari, davlat xarajatlari va aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasini baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu maqolamizning natijalari shuni ko'rsatdiki, uy-joy fondini samarali tashkil qilish va takomillashtirish bo'yicha xorijiy davlatlarning tajribalari bir qancha umumiy tamoyillarga asoslangan. Jumladan, rivojlangan mamlakatlarda uy-joy fondining barqaror rivojlanishi quyidagi omillar bilan ta'minlanadi.

Natijada iqtisodiy jarayonlar matematik tenglik va tengsizliklar asosida ifodalangan soddalashtirilgan tasvirga ega bo'linadi. Ammo ushbu jarayonda hodisaning o'ziga xos asosiy belgilarini hisobga olish talab qilinadi, aks holda model jarayonni to'liq ifodalamaydi. Bu orqali murakkab iqtisodiy jarayonlarni tushuntirishda oddiy modelni ishlab chiqish imkoniyatiga erishiladi. Iqtisodiy jarayonlarning murakkabligi, ya'ni ko'plab omillar asosida vujudga kelishi modelni tuzishda o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Xususan, ba'zi omillarning miqdoriy ko'rinishining mavjud emasligi ularni modelga kiritish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi. Bundan tashqari, barcha omillarni modelda qamrab olishning ham iloji yo'q. Agarda modelda zaruriy omillar to'liq qamrab olinmasa, model jarayonni aniq ifodalay olmaydi. Ekonometrik modelashtirishda jarayonga ta'sir qiluvchi, ammo modelga kiritilmagan omillar tasodifiy o'zgaruvchi sifatida qaraladi. Natijada iqtisodiy va ekonometrik modelashtirish orasidagi muhim farq vujudga keladi. Boshqacha aytganda, bu matematik va statistik modelashtirish orasidagi farq hisoblanadi.

Matematik model aniqlikni, statistik model esa stoxastik o'zgarishlarni, ya'ni tasodifiy holatlarni baholashga xizmat qiladi. Natijada iqtisodiy modelni iqtisodiy jarayonlarni tavsiflashga xizmat qiluvchi farazlar va taxminlar yig'indisi sifatida qarash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Ekonometrik modelning tarkibiy qismlari¹

Natijada ekonometrik model quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi.

Ekonometrik tahlillarni amalga oshirishda modellarni ishlab chiqishda qo'yiladigan maqsadlarni uchta bosqichga ajratgan holda ko'rib chiqish mumkin.

Bular:

— Ekonometrik modellarni shakllantirish va moslashtirish: iqtisodiy modellar empirik tekshirish mumkin bo'lgan shaklda tuziladi. Natijada omillarni qamrab olish, modelning shakli va tuzilishini tanlash hisobiga biror iqtisodiy jarayonni ifodalash uchun ko'p variantli modellarni ishlab chiqish mumkin. Tabiiyki, bu modellar asosida olingan natijalar ham turli ko'rinishga ega bo'ladi. Shu sababli natijalar ishonchligini ta'minlash uchun moslashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratish talab qilinadi.

— Modellarni baholash, ya'ni koeffitsiyentlarni aniqlash va ularning ishonchligini mavjud mezonlar asosida tekshirish: modellarni ishlab chiqish uchun jarayonni ifodalovchi ma'lumotlardan foydalaniladi va

¹ Manba: mavjud nazariy bilimlar asosida muallif ishlanmasi



ularning muvofiqligi mavjud mezonlar asosida tekshiriladi. Ya'ni, modelning noma'lum parametrlarining raqamli qiymatlarini aniqlash va to'g'riligini tekshirish uchun turli baholash mezonlari qo'llaniladi.

— Modellarni amaliyotda qo'llash: ishlab chiqilgan modellar odatda ikkita maqsadda foydalaniladi, ya'ni iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va prognozlarni amalga oshirish. Iqtisodiy jarayonlardagi o'zaro ta'sirlarni hisobga olgan holda jarayonni yaxshilash bo'yicha qarorlar qabul qilinadi yoki mavjud tendensiyalarga tayangan holda kelgusi davr uchun maqsadli ko'rsatkichlar ishlab chiqiladi.

Ekonometrikaning alohida fan sifatida shakllanishining sababi uning matematik hamda iqtisodiy statistikadan farqlanishi hisoblanadi. Iqtisodiy statistika empirik ma'lumotlarni to'plash, qayd qilish, jadvallarga jamlash, turli grafiklar asosida rivojlanish tendensiyalarini tavsiflashga xizmat qiladi. Iqtisodiy statistika iqtisodiy jarayonlarni tavsiflovchi vazifani bajaradi. Shuningdek, u iqtisodiy hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi parametrlarni baholashni ham amalga oshiradi.

Statistik usullar asosan boshqariladigan tajribalarni baholashga asoslangan bo'lib, iqtisodiy hodisalarning ehtimollik xususiyatiga ega bo'lishi ularni iqtisodiy jarayonlarni to'liq baholash uchun har doim ham mos kelmasligiga sabab bo'ladi. Natijada ekonometrika mavjud statistik usullarni iqtisodiy jarayonlarni ifodalovchi ma'lumotlar, ya'ni tasodifiy o'zgarishlarga asoslangan jarayonlarni tadqiq qilishga moslashtiradi. Shu sababli ular ekonometrik usullar sifatida qabul qilinadi. Bu kabi usullar stoxastik munosabatlarni baholash uchun moslashtiriladi.

Ekonometrikani fan sifatida ikkita yirik yo'nalishga — nazariy va amaliy ekonometrikaga ajratish mumkin. Nazariy ekonometrika asosan yangi tadqiqot usullarini ishlab chiqish bilan shug'ullansa, amaliy ekonometrika mavjud usullarga tayangan holda hodisalarning o'zaro bog'liqligini tadqiq qilish, modellarni ishlab chiqish va prognoz qiymatlarini shakllantirish bilan shug'ullanadi. Mazkur tadqiqotda amaliy ekonometrika doirasida ish olib borilib, mavjud tadqiqot usullari yordamida jarayonni baholashga harakat qilinadi. Bunda korrelyatsion va regressiya tahlil usullaridan foydalaniladi.

Korrelyatsion tahlil ikkita o'zgaruvchining chiziqli bog'lanishini baholash uchun qo'llaniladi. Ushbu tahlil usuli jarayonga ta'sir qiluvchi omillarni tanlash hamda modelga kiritiladigan omillar orasidagi bog'liqlik kuchini o'lchash, ya'ni multikollinearlik muammosini aniqlash uchun xizmat qiladi. Korrelyatsiya koeffitsiyenti quyidagi formula asosida hisoblanadi.

$$r = \frac{\frac{1}{n} \sum_{i=1}^n (X_i - \bar{X})(Y_i - \bar{Y})}{\sqrt{\frac{1}{n} \sum_{i=1}^n (X_i - \bar{X})^2} \sqrt{\frac{1}{n} \sum_{i=1}^n (Y_i - \bar{Y})^2}}$$

Keltirib o'tilgan formuladan ko'rish mumkinki, r ning -1 va $+1$ orasidagi qiymatlarni qabul qilishi matematik jihatdan asoslangan. -1 va $+1$ ekstremal qiymatlar bo'lib, ular faqat X va Y o'rtasida mukammal chiziqli bog'liqlik mavjud bo'lgan holatda kuzatiladi va mos ravishda teskari yoki to'g'ri bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. 0 qiymati X va Y o'rtasida chiziqli bog'liqlik mavjud bo'lmagan holatda olinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot uy-joy fondini samarali tashkil qilish va takomillashtirishning xorijiy tajribalarini o'rganishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, rivojlangan mamlakatlarda uy-joy fondini barqaror rivojlantirish quyidagi omillarga bog'liq: davlat va xususiy sektor o'rtasidagi muvozanatli hamkorlik, ijtimoiy himoya mexanizmlari, raqamli boshqaruv tizimlari, innovatsion qurilish texnologiyalari va moliyalashtirish mexanizmlari. Ushbu omillar uy-joy fondining nafaqat sonini oshirish, balki sifatini yaxshilash, barqarorligini ta'minlash va aholining turar joyga bo'lgan talabini samarali qondirish imkonini beradi.

Maqolaning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, har bir mamlakat o'zining iqtisodiy, ijtimoiy va demografik sharoitiga qarab uy-joy fondini boshqarishda o'ziga xos strategiyalarni qo'llaydi. Shu bilan birga, barcha muvaffaqiyatli tajribalar uchun umumiy xususiyat tizimli rejalashtirish, davlat ishtiroki, innovatsion yondashuv va samarali boshqaruv mexanizmlaridir.

O'zbekiston sharoitida uy-joy fondini samarali tashkil qilish va takomillashtirish uchun xorijiy tajribalarni moslashtirish muhimdir. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish — arzon uy-joy dasturlarini amalga oshirishda davlatning reguliator va xususiy sektorning ijrochi rolini uyg'unlashtirish.

Raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish — uy-joy fondi va qurilish jarayonlarini elektron monitoring qilish orqali resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash.

Innovatsion va energiya tejamkor qurilish texnologiyalarini qo'llash — uy-joy fondining sifati va ekologik barqarorligini oshirish.



Moliyalashtirish va ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish — past daromadli qatlamlar uchun subsidiyalar va imtiyozli ipoteka dasturlarini kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, uy-joy fondini samarali boshqarish va takomillashtirish milliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali aholining sifatli, arzon va barqaror uy-joy bilan ta'minlanishi mumkin. Tadqiqot natijalari uy-joy siyosatini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga va keyingi ilmiy izlanishlar uchun asos yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5598-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4103415>
3. UN-Habitat. Global Housing Strategy: Making Housing Affordable for All. — Nairobi: United Nations Human Settlements Programme, 2020. — 96 p.
4. J.F. Kain, E.S. Mills. Urban Economics. — New York: Harper & Row, 1970. — 480 p.
5. P. Hall. Cities of Tomorrow: An Intellectual History of Urban Planning and Design. — Oxford: Blackwell Publishing, 2002. — 576 p.
6. P. Healey. Collaborative Planning: Shaping Places in Fragmented Societies. — London: Macmillan Press, 1997. — 352 p.
7. A. Sen. Development as Freedom. — Oxford: Oxford University Press, 1999. — 384 p.
8. A. Giddens. The Consequences of Modernity. — Cambridge: Polity Press, 1990. — 188 p.
9. N. Stern. The Economics of Climate Change: The Stern Review. — London: HM Treasury, 2006. — 712 p.
10. J.E. Stiglitz. Economics of the Public Sector. — New York: W.W. Norton & Company, 2000. — 832 p.
11. H. de Soto. The Mystery of Capital: Why Capitalism Triumphs in the West and Fails Everywhere Else. — New York: Basic Books, 2000. — 276 p.
12. Asad o'g'li, R. D. (2025). Mintaqada sanoat ishlab chiqarishning baholash omillari. Journal of new century innovations, 89(2), 103-105.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>